# *PghCHR haqida*

- Inson aloqalari boʻyicha komissiya (PghCHR) uy-joy, bandlik, davlat imtiyozlaridan foydalanishdagi hamda shahar xizmatlari, jumladan politsiya tomonidan koʻrsatilgan xizmatlardagi diskriminatsiya holatlarini surishtiradi.
- PghCHR diskriminatsiya tufayli aziyat chekkan har qanday shaxs uchun yechim topishga harakat qiladi.
- Biz insonlarga teng huquqlar va imkoniyatlar borasida taʼlim berish maqsadida hamjamiyatlar, davlat va xususiy tashkilotlari bilan ishlaymiz.

# *Diskriminatsiya nima?*

- Diskriminatsiya bu sizning **himoyalangan toifaga** mansubligingiz tufayli sizga nisbatan munosabatning farqli boʻlishidir.
- Himoyalangan toifa bu umumiy belgilarga ega insonlar guruhi boʻlib, bunday belgilari tufayli diskriminatsiya qilinishdan qonunan himoyalangan insonlardir.
- Pitsburg shahrida himoyalangan toifalar deb boshqasi belgilanmagan boʻlsa quyidagi bandlik, uy-joy, davlat imtiyozlari va shahar xizmatlaridan foydalanish borasida himoyalangan toifalar hisoblanadi:

**Yosh** (40 yoshdan katta, faqat bandlik)**, kelib chiqishi, fuqarolik holati** (uy-joy va davlat imtiyozlari)**, rang, nogironlik/imkoniyati cheklangan yoki yordamchi hayvon, oilaviy holat** (faqat uy-joy)**, jinsiy mansublik/ifodalash, himoyalangan va madaniy soch turmaklari/uslublari va bosh kiyimlari, millat, tugʻilish joyi, tanlangan til** (uy-joy va davlat imtiyozlari), **homiladorlik** (faqat bandlik)**, irq, din, jins, jinsiy orientatsiya, oiladagi zoʻravonlik qurboni maqomi** (uy-joy va bandlik**), tibbiy marixuana isteʼmolchilari** (faqat bandlik)

# *Kimlar shikoyat kiritishi mumkin?*

Pitsburg shahridagi har qanday diskriminatsiyaga duch kelgan odam shikoyat kiritishi mumkin. Insonlar yoki tashkilotlar guruh(lar)i oʻzlarini diskriminatsiyaga duch kelgan deb hisoblashsa yoki shunday holatdagi biror insonni himoya qilish uchun shikoyat kiritishi mumkin.

## *PghCHR bilan qanday bogʻlanish mumkin*


Manzil: City-County Building (Ross St. Side)
414 Grant Street, Room 908
Pittsburgh, PA 15219

Idora telefon raqami: (412) 255-2600

Vebsayt: www.pittsburghpa.gov/chr

Email: human.relations@pittsburghpa.gov


*Vebsaytimizni koʻrish yoki onlayn soʻrov yuborish portaliga kirish uchun bu yerni skanerlang*



[Uzbek]

# Pitsburgda oʻz fuqarolik huquqlaringizni tanib oling

*Sizning fuqarolik huquqlari idorangiz*

**Pitsburg inson aloqalari boʻyicha komissiyasi**

*Talim – Hamkorlik – Huquqni muhofaza qilish*